

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
«Yengil sanoat texnologiyasi»
fakulteti**

«Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi» kafedrası

Himoyaga ruxsat etildi
Fakultet dekani

_____ U. Meliboyev
«_____» iyun 2016 yil

5321200-«Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi» ta'lim
yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi

BOLTABOYEV FURQAT XIKMATULLA O'G'LIning

"Norin PTKdagi gin mashinasining himoya elementlarini takomillashtirib qayta
loyihalash" mavzusidagi

Bitiruv malaka ishi

Bitiruvchi: Boltaboyev Furqat Xikmatulla O'g'li

(imzo)

Ilmiy rahbar: dots. Azimov Samad Solijanovich

(imzo)

Kafedra mudiri: dots. Tojiboyev Muhammadjon

(imzo)

Namangan - 2016 y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**«Yengil sanoat texnologiyasi»
fakulteti**

Kafedra mudiri, dotsent
_____M. A. Tojiboyev
«_____»_iyun_2016 y

5321200-«Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi» ta'lim
yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi

BOLTABOYEV FURQAT XIKMATULLA O'G'LIning
"Norin PTKdagi gin mashinasining himoya elementlarini takomillashtirib qayta
loyihalash" mavzusidagi

BITIRUV MALAKA ISHI

Bajardi:	_____	F. Boltaboyev
Rahbar:	_____	dots. S. Azimov
Maslahatchilar:	_____	dots. O. Qozoqov
	_____	A. Akramov

NAMANGAN-2016 YIL

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Engil sanoat texnologiyasi” fakulteti

«Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi» kafedrası

“Tasdiqlayman” _____

Kafedra mudiri M. A. Tojiboyev

2016 yil “__” _____

5321200-«Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi» ta’lim yo’nalishi

8au-12 guruhi talabasi Boltaboyev Furqat Xikmatulla O'g'lining

"Norin PTKdagi gin mashinasining himoya elementlarini takomillashtirib qayta loyihalash" mavzusiga

Bitiruv malaka ishi bo'yicha topshiriq

1. Bitiruv malaka ishining mavzusi "Norin PTKdagi gin mashinasining himoya elementlarini takomillashtirib qayta loyihalash" «__» dekabr 2015 yil kafedra majlisida ma’qullangan.

2. Bitiruv malaka ishini topshirish muddati- __ iyun 2016 yil

3. Bitiruv malaka ishini bajarishga doir boshlang’ich ma’lumotlar;

Norin PTKning biznes rejasi; korxonaning 2014 yil yakuni bo’yich hisob-kitob natijalari; korxonaning bosh plani; mashinalarning ishchi chizmalari; arrali jin haqida ma’lumot; arrali jinning sxemasi;

4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro’yhati):

Kirish; Tehnologik qismi; Mehanika qismi; Mehnat muhofazasi va ekologiya qismi; Iqtisodiy qism; Xulosa; Foydalanilgan adabiyotlar; Ilovalar.

5. Chizma ishlar ro’yhati (chizmalar nomi aniq ko’rsatiladi):

1. Norin PTKning bosh rejasi;

2. Norin PTKning bosh binosi;

3. Texnologik jarayon uchun taklif etilgan oqim liniya chizmasi;

4. Arrali gin sxemasi;

5. Taklif etilgan arrali gin sxemasi;

6. Iqtisodiy samaradorlik hisobi.

6. Bitiruv malaka ishi bo'yicha maslahatchilar

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi F. I. SH.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	Kirish	S.Azimov	11.01.2016	05.02.2016
2	Asosiy qism	S.Azimov	18.01.2016	30.04.2016
3	Iqtisodiy qism	O. Qozoqov	31.03.2016	26.05.2016
4	Mehnat muhofazasi	A. Akramov	13.05.2016	27.05.2016
5	Yakuniy qism	S.Azimov	20.05.2016	1.06.2016

Topshiriqlar to'liq bajarildi _____ S.Azimov

7. Bitiruv malaka ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv malaka ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1	Kirish	05.02.2016	
2	Asosiy qism	30.04.2016	
3	Iqtisodiy qism	26.05.2016	
4	Mehnat muhofazasi qismi	27.05.2016	
5	Yakuniy qism	1.06.2016	

Bitiruv malaka ishi rahbari

S.Azimov

(imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim

F. Boltaboyev

(imzo)

Topshiriq berilgan sana 2016 yil “__” _____

Himoyaga ruxsat 2016 yil “__” iyun

Kafedra mudiri

M. Tojiboyev

(imzo)

Mundarija

Kirish	7
Texnologik qismi	11
Mexanika qismi	35
Mehnat muhofazasi qismi	50
Iqtisodiy qism	58
Xulosa	69
Foydalanilgan adabiyotlar	72
Ilovalar	74

KIRISH

O'zbekiston jahon bozorida o'zining paxtasi bilan yuksak nufuzga ega davlat. Mamlakatimiz paxta tolasi sifatini oshirishga doimiy e'tibor qaratgani tufayli bu sohaga oid barcha xalqaro tadbirlarda faol ishtirok etmoqda, paxta etishtirish texnologiyasini takomillashtirish, yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega paxta tolasini ishlab chiqarishni ko'paytirishga yo'naltiriladigan sarmoyalar hajmini oshirmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida birinchi navbatga qo'ygan masala: "Birinchi navbatda, jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalarni jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarur.

Ma'lumki, O'zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslarining, masalan, paxta va boshqa turdagi xomashyolarning narxi keskin tushib ketgan holatlarni ko'p marotaba boshidan kechirgan.

Shu bilan birga, to'qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xomashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta'minlash, bo'yalgan ip-kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o'zlashtirish asosida, tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erisha olamiz.

Mamlakatimizda ishga solinmagan yana ko'plab rezerv va imkoniyatlar mavjudligiga birgina shu misol asosida ishonch hosil qilish mumkin.

Bu o'rinda gap, avvalo, dastlabki xomashyoni va yarim tayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, buning uchun neft-gaz, neft-kimyo va kimyo, yengil sanoat va elektrotexnika tarmoqlarida yangi kompleks va korxonalar tashkil etish, shuningdek, jahon va

mintaqa bozorlarida, ichki bozorimizda xaridorgir bo'lgan tayyor to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, elektronika va maishiy elektr texnika mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari, qurilish va pardozlash materiallari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish haqida bormoqda.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda tegishli vazirlik va idoralar, uyushmalar, kompaniyalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ishtirokida 2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin va qabul qilsin".

O'zbekiston Milliy iqtisodiyotining muhim sohasi – paxta tolasi ishlab chiqarishda zamon talablariga mos keladigan texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi. Hozirgi kunda bu sohaning oldida turgan asosiy vazifa tola va chigitning tabiiy xususiyatlarini saqlagan holda sifatli tolali xom ashyo ishlab chiqarishdan iborat.

Paxtani dastlabki ishlash bir qator texnologik jarayonlardan iborat bo'lib (joylashtirish, saqlash, tashish, quritish, tozalash, tola ajratish va boshqalar), o'ziga xos texnologik zanjirni tashkil etadi. Bu texnologik zanjir har bir jihozning ish unumi va undan oldingi mashinalarning ish sifatiga chambarchas bog'liqdir. Mana shu masalani inobatga olgan holda paxtaning sifat ko'rsatkichlariga texnologik zanjir jihozlari ta'siri katta degan xulosaga kelish mumkin.

Paxta tolasining jahon bozoridagi raqobatdoshligi asosan tashqi ko'rinishi tola uzunligi, hamda tarkibidagi ifloslik va nuqsonlar miqdoriga qarab belgilanadi.

Tolani chigitdan ajratish jarayonida tola va chigitda jinlash nuqsonlari xosil bo'ladi. Jinlangan tola tarkibida: ulyuk, pishmagan tola, singan tola, tola bo'lakchalari, tolali chigit po'stlog'i, eshilgan va tuginchali tolalar bo'lishi sababli, tolaning ifloslik bo'yicha sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun tolani tozalash lozimdir. Bu nuqsonlar tolaning sifat ko'rsatkichlarini pasaytiradi, yigiruv sanoatida katta muammolarga olib keladi. Shuning uchun tolani presslashdan oldin tozalash muhim ahamiyatga ega.

Agar iflosliklari davlat standartida ko'rsatilgan me'yordan ko'p bo'lib, ularni presslab toylansa, to'kimachilik fabrikalari tayyorlov sexlari mashinalarining ishini qiyinlashtiradi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi Norin PTKdagi gin mashinasining himoya elementlarini takomillashtirib qayta loyihalashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishimni bajarishda mutaxassislik fanlari mashg'ulotlarida va ishlab chiqarish amaliyotlarida olingan nazariy va amaliy bilimlardan keng foydalandim.

TEXNOLOGIK QISMI

“Norin tola” OAJ 1927 yilda tashkil qilingan. Manzili: Xaqulobod shahri Beruniy ko’cha 78-uy. Korxonaning mlk shakli aktsiyadorlar ulushidan iborat. Shu jumladan Namanganpaxtasanoat – 51 %, respublika “Agrobank” – 1,19, jismoniy shaxslar – 47,8. asosiy ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turi tola, momiq, chigit, ulyuk va pux mahsulotlaridan iborat. Korxona tarkibiga boshqaruv apparati, texnik nazorat bo’limi, ma`muriy xo’jalik bo’limi, umumiy tsex personali, ta`mirlash-mexanika bo’limi, Xaqulobod va Uchtepa paxta saroylari kiradi.

Jami ishchi va xodimlar soni 293 kishini tashkil qiladi, jumladan, boshqaruv xodimlari – 16 kishi, muhandis-texnik xodimlar – 25 kishi, ishchilar 252 kishi. Ishchilarning o’rtacha oylik maoshlari 550-600 ming so’m.


Korxonaning paxta bo’yicha yillik ishlab chiqarish quvvati 30 ming tonnani tashkil qiladi.

Korxonani 2015 yildagi daromadi 1 mlrd 484 mln 620 ming so’mni tashkil qiladi. Bir yilda 1,7 mlrd so’mli mahsulot ishlab chiqarildi. 2014-2015 yillarda korxona va korxonaga qarashli paxta saroylarida servis hizmat ko’rsatish shaxobchalari qurib bitqazilmoqda, hamda ipak qurti boqishga ixtisoslashtirilgan pillaxonalar qurib ishga solindi.


Paxta tozalash zavodining ishlab chiqarish dasturini hisoblash

CHigitli paxta - bu paxta tozalash zavodlari uchun asosiy hom ashyo. Umumiy materiallar xarajatining 75-80% zavodning hom ashyo bazasini yaratishga, ya`ni, chigitli paxtani xo’jaliklardan sotib olish uchun sarf qilinadi.


Hom ashyo bazasining holati va ishlab chiqarishni rasional foydalanish – chiqariladigan mahsulot hajmiga, sifatiga va barcha texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlarga katta ta`siri bor. Shu sababli paxta tozalash zavodining ishlab chiqarish dasturini hisoblashda uning iqtisodiy tomonidan foydaliligini aniqlash, ya`niy texnologik uskunalarning, ishlab chiqarish bulimlarning ishlash rejasini tuzish yeng asosiy vazifalardan biri bo’lib topiladi.




1-rasm. Quritish-tozalash sexi




2-rasm. Jinlash sexi



3-rasm. Linterlash sexi



4-rasm. Presslash sexi



5-rasm. “Norin paxta tolasi” korxonasining bosh binoning ko’rinishi

Hisoblash tartibi

Hisoblash uchun dastlabki quyidagi ma'lumotlardan foydalanish

Xom ashyo bazasining hajmi, Qpaxta	18344
Zavodda ishlaydigan jinlar soni, Km	4
Jin silindridagi arralr soni, Kar	90
Tola chiqishi, Vt	31,4
Korxonaning ishlash tartibi, nc	3
Korxonaning ishlash vaqti, soat	8
Uskunalarining FIK, h	0,9
Lint olish darajasi B tip	2,8
Linterlar soni	10
Linter ish unumdorligi, Pr	1000
PTPdagi paxta miqdori, Qptp	10000
Bir yildagi kunlar soni, N	258
Yil davomidagi dam olish kunlari, Nd	27
Qonuniy bayram kunlari, Nb	8
Kapital ta'mirlash kunlari, Nk	25
Tola toyining og'irligi	220
Lint va tolali chiqindi toyining og'irligi	225

Hisoblash

1. PTZning yildavomida ishlash vaqtini hisoblaymiz:

$$T = [N - (N_D + N_b + N_{KP})] \cdot 3 \cdot 8 \cdot 0,9 = [258 - (27 + 8 + 25)] \cdot 3 \cdot 8 \cdot 0,9 = 4276,8 \text{ soat} \quad (1)$$

Bu yerda: N – bir yildagi kunlar soni

N_d – yil davomida dam olish kunlari

N_b – qonuniy bayram kunlari

N_{k,p} – kapital tamirlash kunlari

2. Arralijinda ishlab chiqariladigan umumiy tola hajmini aniqlaymiz:

$$Q_T = \frac{Q_n B_m}{100} = \frac{18344 \cdot 33,0}{100} = 6053,52 \text{ tonna}$$

(2)

Bu yerda , Q_n - umumiy paxta xajmi

B_m – tola chiqishi (vixod)

3. Jinlarning o'rtacha ish unumdorligini aniqlaymiz:

$$P_{o'rt} = \frac{Q_m \cdot 1000}{K_m \cdot K_{ar} \cdot T} = \frac{6053.52 \cdot 1000}{2 \cdot 130 \cdot 4276.8} = 5.44 \text{ kg} \cdot \text{arra} / \text{soat} \quad (3)$$

Bu yerda: Q_m –umumiy tola xajmi

K_M – jinlar soni

K_{ap} – jindagi arralar soni

T –PTZningyildavomidaishlashvaqtini

4. Tola navlari bo'yicha paxtaning assortimenti.

Paxta navi	Paxta hajmi		Tola navlari bo'yicha hajmi										Tola hajmi	
			1		2		3		4		5			
	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T
I	65	11923.6	96	11446.6	4	476.94							34	4054.02
II	8	1467.52	8	117.4	90	1320.76	2	29.35					33.4	490.15
III	18	3301.9			5	165.09	95	3136.8					32	1056.6
IV	7	1284					7	89.88	93.0	1194.1			31.1	399.32
V	2	366.8							50.0	183.4	50	183.4	29.3	107.47
Jami	100	18344											33.4	6107.56

5. Paxta tolasining sinflari bo'yicha assortimenti.

Paxta navi	Paxta hajmi	Tola hajmi		Tola navlari bo'yicha paxta hajmi									
				Oliy		Yaxshi		O'rta		Oddiy		Iflos	
		T	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T	%
I	11923.6	71.3		4054.02	100	4054.02							
II	1467.52	11.0		490.15	8	39.21	92	450.93					
III	3301.9	9.6		1056.6			5	52.83	91	961.50	4	42.26	
IV	1284	4.7		399.32					20	79.86	80	319.45	
V	366.8	3.5		107.47							100	107.47	
Jami	18344			6107.56									

6. Ishlab chiqarishda paxtadan olinadigan mahsulotlar balansi.

Paxta navi	Paxta hajmi		Tola hajmi		Chigit chiqishi va hajmi		Momiq chiqishi va hajmi		Tolali chiqindi chiqishi va hajmi		Iflos chiqindi chiqishi va hajmi	
	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T
I	70	11923.6	34	4054.02	61.5	7333	1.4	166.93	0.2	23.8	3.1	369.6
II	11	1467.52	33.4	490.15	60.1	881.97	1.9	27.88	0.3	4.4	5.2	76.31
III	10	3301.9	32	1056.6	59.6	1967.93	0.7	23.11	0.4	13.2	7.1	234.43
IV	5	1284	31.1	399.32	57.7	740.86	0.0	0	0.6	7.7	9.8	125.83
V	4	366.8	29.3	107.47	57.2	209.80	4.3	15.77	1.1	4.0	11.6	42.54
Jami		18344		6107.56		11133.5	1.3					

7. Arrali jinli sexning ishlab chiqarish dasturi

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Paxta navlari					Jami
			I	II	III	IV	V	
1	Paxta hajmi	T	11923.6	1467.52	3301.9	1284	366.8	18344
2	Jinlar soni	dona	2	2	2	2	2	2
3	Arralar soni	dona	130	130	130	130	130	130
4	Jinlar ish unumdorligi	Kg/arra	10.9	9.6	8.6	7.8	7.5	9.6
5	Ishlab chiqarilgan tola miqdori	T	4054.02	490.15	1056.6	399.32	107.47	6107.56
6	Ishlab chiqarilgan chigit miqdori	T	7333	881.97	1967.93	740.86	209.80	11133.56
7	Navlar bo'yicha jinlarning ishlash vaqti	Soat	2637.11	470.4	458.0	245.4	415.7	4276.8

8. Chigitni linterlash bo'limining ishlash rejasi.

Lint tipi	Ish unumdorligi	Linterlar soni	Lint olish darajasi	Ajratilgan lint miqdori	Linterlashdan oldin chigit miqdori	Linterlashdan keyingi chigit miqdori	Urug'lik chigit uchun ajratilgan chigit miqdori
A	1000	8	3.2	89	3966	3877	376.6
Jami	1000	8	3.2	89	3966	3877	376.6

9. Tolali mahsulotlarni toylash bo'limining ishlash rejasi

№	Ko'rsatkichlar	o'lchov birligi	Toylanadigan mahsulotlar			
			Tola	Lint-A	Lint-B	tolali chiqindi
1	Preslar soni	dona	1	1		
2	Yil davomida ishlash vaqti	soat	4276.8	4276.8		4276.8
3	Toyning o'rtacha og'irligi	kg	220	225		225
4	Mahsulotlarning umumiy massasi	T	6429	684.3		91.8
5	Pressning ish unumdorligi					
	A) massasi bo'yicha	T/soat	2.5	0.16		0.02
	B) toy hisobida	toy/soat	11.4	0.71		0.10
6	Tayyor mahsulotlar toy hisobida	dona				

10. PTZning tayyor mahsulot chiqarish ko'rsatkichlari

№	Tayyor mahsulotlar	O'lchov birligi	Vaqt ko'rsatkichlari			
			soat	smena	Sutka	yil
1	Tola	Tonna	2.5	20.0	60	6429
2	Lint:					
	A) A-tipli	Tonna	0.2	1.3	3.8	
	B) B-tipli	Tonna				
3	Chigit:					
	A) urug'lik	Tonna	0,08	0,6	1,9	258,573
	B) texnik	Tonna	2,4	19,5	58,5	7950,327
4	Tolali chiqindilar	Tonna	0,12	0,96	2,89	393,1

11. PTZ qoshidagi PTP dagi omborlarda va bunt maydonlarida saqlanadigan paxtaning umumiy hajmi

№	Tayyorlash muddati	Tayyor mahsulot hajmi		Muddatdagi ish kuni	Ishlab chiqarishga berilgan paxta (sutkada)	Muddat vaqtida ishlab chiqarilgan paxta hajmi	PTPda terim davri oxirida tayyorlangan paxta
1	15.09-30.09.	20	2891	11	99,7	1097,0	1793,8
2	1.10-15.10.	35	5059	11		1097,0	3961,8
3	16.10-31.10.	30	4336	12		1196,8	3139,4
4	1.11-15.11.	15	2168	11		1097,0	1071,1
		100	14454	45		4487,8	9966,1

Ombor va paxta saqlash maydonlari hisobi

1. Usti berk paxta saqlanadigan ombor va bunt maydonlaridagi paxtani umumiy miqdori aniqlanadi.

$$Q_o = \frac{Q_{\max} \cdot 25}{100} = \frac{10000 \cdot 25}{100} = 2500 \quad (4)$$

$$Q_b = \frac{Q_{\max} \cdot 75}{100} = \frac{10000 \cdot 75}{100} = 7500 \quad (5)$$

Bu erda: $Q_{\max}$ – umumiy chigitli paxta

2. Omborlar va bunt maydonlarining soni topiladi.

$$n_o = \frac{Q_o}{V_o} = \frac{2500}{750} = 3 \qquad n_b = \frac{Q_b}{V_b} = \frac{7500}{350} = 22$$

Bu erda: V_o - standart omborlar hajmi, 750-800 tonna;

V_b - standart bunt paxta saqlash hajmi, 350-400 tonna.

Urug'lik chigit uchun ucti berk omborxonalar xicobi

$$f = \frac{Q_{urug'} \cdot 1000}{H \cdot \gamma \cdot \rho_{ch}} = \frac{1223 \cdot 1000}{2,5 \cdot 0,82 \cdot 350} = 1704.52$$

Bu erda: $Q_{urug'}$ -urug'lik chigit miqdori, tonna;

H -chigit to`kilish balandligi, 2,5 metr;

γ – to`la tish kayfitsenti

ρ_{ch} - chigitni solishtirma og'irligi

Texnik chigit uchun maydonlar hisobi

$$f = \frac{k \cdot Q_{tex} \cdot 1000}{H \cdot Y \cdot \rho_{ch}} = \frac{3 \cdot 35 \cdot 1000}{2,5 \cdot 350 \cdot 0,83} = 144.5$$

Buerda: Q_{tex} -PTZda 1 sutkada ishlab chiqarilgan texnik chigit miqdori, tonna;

N -texnik chigitni o'kish balandligi, 2-3 metr;

k - zapaskunlar (belgilangan normabo'yicha), 2-5;

Y - chigitni solishtirma og'irligi ($Y=350 \text{ kg/m}^3$)

ρ_{ch} -omborni to'latilish koeffitsienti ($\rho_{\text{ch}} = 0,8-0,85$)

Paxta tolasi va momiq toylari uchun maydon hisobi

$$f = K \frac{k(N_T + N_n) \cdot a \cdot b}{H \cdot \varphi} = 1,5 \cdot \frac{4 (272,6 + 17,1) \cdot 0,97 \cdot 0,6}{3 \cdot 0,7 \cdot 0,9} = 356,83$$

Bu erda: h -toy balandligi, $h=0,7\text{m}$;

H -taxlangan toylar balandligi, $N=h \cdot j$

N_T - 1 sutkada ishlab chiqarilgan tola toylari soni;

N_n - 1 sutkada ishlab chiqarilgan momiq toylari soni;

b - toylar eni, $b=0,6 \text{ m}$;

k -zavoddagi saqlanish kunlar soni, $k=3-5$ sutka;

j -qatorlar soni, $j=3-4$;

φ -maydonni to'ldirish koeffitsienti, $\varphi =0,9$;

K -tolani partiyaga ajratib joylashtirishni xisobga olish koeffitsienti

$K=1,5$.

Norin PTK ning tozalash rejasini hisoblash

Norin paxta tozalash korxonasining umumiy tozalash samaradorligini bilish uchun avvalo shu zavod qanday texnologik ketma-ketlik asosida ishlashi, korxona qanday zamonaviy texnologiya bilan ta'minlanganligini hamda mashinalarning ma'nau eskirganlarini aniqlab olishimiz kerak. Oldin mavjud texnologik jarayon bo'yicha zavodning umumiy tozalash samaradorligi hisoblab chiqiladi. Keyin esa taklif etilgan texnologik jarayon bo'yicha umumiy tozalash samaradorligi hisoblanib kerakli mashinalar tavsiya etiladi.

Paxta tozalash korxonasi umumiy tozalash samaradorligini va tolaning ifloslik bo'yicha sifatini hisoblash.

Hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar:

I. Chigitli paxtalarning sifat ko'rsatkichlari:

A) paxta turi - o'rta tolali

B) terim turi - qo'lda terilgan

Quritilgandan keyingi namligi, W, %	9,2
Dastlabki iflosligi S_1 , %	10,2
Paxtadagi uluk darajasi, U_1 , %	1,4
Tola chiqishi	32,6

II. Quritish va tozalash sexida o'rnatilgan texnologik uskunalarning o'rtacha tozalash samaradorligi

Uskunalarining markasi	Tozalash samaradorligi, % hisobida		
	Mayda iflosliklar	Yirik iflosliklar	Uluk bo'yicha
Separator CC-15A	3÷7	-	-
Quritish barabani 2CB-10	-	-	-
ЧХ5	-	40÷45	20÷25
Tozalagich 1XK	40÷45	-	-

III. Jinlash sexida o'rnatilgan uskunalarning o'rtacha tozalash samaradorligi:

Uskunalarining markasi	Tozalash samaradorligi, % hisobida		
	Mayda iflosliklar	Yirik iflosliklar	Uluk bo'yicha
Jin ta'minlagich ПД	5÷10	-	-
Arrali jinlar 4/П-130	20÷25	-	5÷10
Tola tozalagich 1БПЧ	25÷30	-	-

Agar bir tipdagi tozalagichlar ketma-ket ulangan bo'lsa, unda keyingi tozalagichning tozalash samaradorligining kamayish koeffitsienti $k=26$.

“Norin paxta tolasi” A/Jni umumiy tozalash samaradorligini va tolaning ifloslik bo'yicha sifatini amaldagi texnologik jarayon asosida hisoblash

1. Quritish va tozalash tsexlarining tozalash samaradorligini hisoblash:

CC-15A → 2(1XK) → ТЛН → 2:[ЧХ5] → (CC15A) → 2(1XK)

a) iflosliklar bo'yicha

$$\begin{aligned}
 K_{km} &= \left[1 - \left(1 - \frac{K_{CC-15}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{1XK}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{CHX5}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{CC15A}}{100} \right) \cdot \right. \\
 &\cdot \left. \left(1 - \frac{K_{1XCHX5K}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{CHX5}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{1XK}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{1XK}}{100} \right) \right] \cdot 100 = \\
 &= \left[1 - \left(1 - \frac{7}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{45}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{45}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{33}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{24}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{33}{100} \right) \right] \cdot 100 = \\
 &= [1 - (0,93 \cdot 0,55 \cdot 0,55 \cdot 0,67 \cdot 0,76 \cdot 0,76)] \cdot 100 = 89,1 \%
 \end{aligned}$$

b) Uluklar bo'yicha

$$\begin{aligned}
 K_{km} &= \left[1 - \left(1 - \frac{K_{YXK}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{YXK}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{YXK}}{100} \right) \right] \cdot 100 = \\
 &\left[1 - \left(1 - \frac{25}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{18}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{13}{100} \right) \right] \cdot 100 = \\
 &[1 - (0,75 \cdot 0,82 \cdot 0,87)] \cdot 100 = 46,5 \%
 \end{aligned}$$

2. Arrali jinli sexning tozalash samaradorligini xuddi shu formula asosida hisoblanadi.

a) iflosliklar bo'yicha

$$K_{AP} = \left[1 - \left(1 - \frac{K_{CC-15}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{III}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{5,III}}{100} \right) \right] \cdot 100 = \left[1 - \left(1 - \frac{5}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{7}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{15}{100} \right) \right] \cdot 100 = [1 - (0,95 \cdot 0,93 \cdot 0,85)] \cdot 100 = 24,9 \quad \%$$

b) Uluklar bo'yicha

$$K_{ar} = K_{nd} = 8 \quad \%$$

3. Zavodning chigitli paxtani tozalashda umumiy tozalash samaradorligi hisoblanadi:

a) iflosliklar bo'yicha

$$K_{yM} = \left[1 - \left(1 - \frac{K_{KT}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{AP}}{100} \right) \right] \cdot 100 = \left[1 - \left(1 - \frac{89,1}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{24,9}{100} \right) \right] \cdot 100 = [1 - (0,109 \cdot 0,751)] \cdot 100 = 91,8 \quad \%$$

b) Uluklar bo'yicha

$$K_{yM} = \left[1 - \left(1 - \frac{K_{KT}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{AP}}{100} \right) \right] \cdot 100 = \left[1 - \left(1 - \frac{46,5}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{8}{100} \right) \right] \cdot 100 = [1 - (0,487 \cdot 0,92)] \cdot 100 = 50,8 \quad \%$$

4. Paxtaning dastlabki iflosligi (C_1) belgili bo'lsa, unda jinlash jarayonidan keyin toladagi ifloslik darajasi aniqlanadi:

$$C_2 = \frac{100 \cdot C_1 \cdot (100 - K_{um})}{10000 - C_1 \cdot K_{um}} = \frac{100 \cdot 10,2 \cdot (100 - 91,8)}{10000 - 10,2 \cdot 91,8} = 0,92 \quad \%$$

5. Dastlabki paxtadagi uluk darajasi (U_1) aniqlangan bo'lsa, unda jinlashdan keyin toladagi uluk miqdorini hisoblash mumkin:

$$U_2 = \frac{100 \cdot U_1 \cdot (100 - K_{um})}{10000 - U_1 \cdot K_{um}} = \frac{100 \cdot 1,4 \cdot (100 - 50,8)}{10000 - 1,4 \cdot 50,8} = 0,69 \%$$

6. Jinlashda ajratiladigan toladagi nuqsonlar va iflosliklar darajasi aniqlanadi:

$$\Pi_0 = \alpha \cdot \left(\frac{C_2 + Y_2}{B_T} \cdot 100 \right) = 1,2 \cdot \left(\frac{0,92 + 0,69}{33,4} \cdot 100 \right) = 5,8 \%$$

7. Jinlarda ajratilgan tolalarni tozalash mashinasida tozalagandan keyingi iflosliklar bo'yicha tola sifati aniqlanadi:

$$\Pi_T = \frac{100 \cdot \Pi_0 \cdot (100 - K_{TTM})}{10000 - \Pi_0 \cdot K_{TTM}} = \frac{100 \cdot 5,8 \cdot (100 - 30)}{10000 - 5,8 \cdot 30} = 4,13 \%$$

Norin PTKda o'rnatilgan jinlarning arrali silindri tishlaridan tolani havo yordamida ajratib olish uchun ventilyator tanlash


Jinlash yoki linterlashdan so'ng yanada qo'shimcha operatsiya: tolani yoki lintni arra tishlaridan ajratib olish. Bu operatsiyani bajarish uchun xozirgi davrda eng qulay, u havo tezligini foydalanish asosida, katta aylanish tezligidagi arrali silindr tishlaridan tolani ajratib olish bo'lib topiladi. Shu sababli jinlar yoki linterlar qatoriga kerakli havo hajmini va uning tezligini ta'minlash uchun markazdan qochma ventilyatorlardan foydalanadilar. Ventilyator tanlashda, uning iste'mol quvvatini aniqlash uchun hisoblash ishlari olib boriladi.

Hisoblash uchun quyidagi dastlabki ma'lumotlardan foydalanildi:

- qatorda o'rnatilgan mashinalar, markasi va soni $K_m=2$, 4DP-130,
- xar biriga kerakli havo xajmi $q_m=0,73$
- qatorda o'rnatilgan mashinalarning o'q oraligi $l=5$ m
- havo uzatib beruvchi trubaning diametri $d_t=0,38$ m
- qatorda o'rnatilgan birinchi mashina bilan foydalanadigan ventilyatorning oraliq masofasi $L=6$ m

Hisoblash usuli quyidagicha olib boriladi:

1. Dastlabki ma'lumotlar asosida sistemaning chizma ravishda sxemasi ko'rsatiladi.



6-rasm. Ikkita mashina o'rnatilgan sistemaning chizma sxemasi.

2. Qatorda o'rnatilgan xamma mashinalarga kerakli havo xajmi hisoblanadi:

$$Q_{um} = K_m * q_m = 2 * 0,73 = 1,46 \text{ m}^3/\text{s}$$

bu yerda: K_m - qatorda o'rnatilgan mashinalar soni, dona.

q_m - bitta mashinaga kerakli havo hajmi, m^3/s .

3. Sistemada ko'rsatilgan qismlar (AB, BC) bo'yicha havo tezligini aniqlanadi:

$$V_{AB} = Q_{um} / f = 1,46 / 0,1134 = 12,87 \text{ m/s.}$$

$$V_{BC} = (Q_{um} - q_1) / f = (1,46 - 0,73) / 0,1134 = 6,44 \text{ m/s}$$

bu yerda: f - ventilyatordan havoni uzatadigan trubaning ko'ndalang qirgimi yuzasi, $f = \pi d^2 / 4$

$$f = (3,14 * 0,38^2) / 4 = 0,1134 \text{ m}^2;$$

5. Har bir qism bo'yicha havo tezligining statik qarshiligini hisoblanadi:

$$h_{ct} = \beta * \gamma * l * \{U * V^2\} / f * 2 \text{ g mm.suv ustuni.}$$

$$h_{CT} = 0,05 * 1,24 * 6 * (1,2 * 12,87^2) / (0,1134 * 2 * 9,8) = 33,3 \text{ mm.suv ustuni}$$

$$h_{CT} = 0,05 * 1,24 * 5 * (1,2 * 6,44^2) / (0,1134 * 2 * 9,8) = 6,9 \text{ mm.suv ustuni}$$

bu yerda: β - havo bilan trubaning ichki tarafidagi ishqalanishini hisobga olish koefitsienti ($\beta = 0,05$);

γ - havoning nisbiy og'irligi, ($\gamma = 1,24 \text{ kg/m}^3$);

l - trubaning qismlar bo'yicha uzunligi, m;

U - trubaning perimetri, m ($U = 2\pi R = 2 * 3,14 * 0,19 = 1,2$);

f -trubaning ko'ndalang qirqimining yuzasi, m^2 . ($f=\pi R^2$)

6. Sistema bo'yicha xavoning umumiy statik bosim qarshiligini aniqlaymiz.

$$H_{CT}=h^{AV}+h^{VS}+...+h^{mn}, \text{mm suv ust}$$

$$H_{CT}=33,3+6,9=40,2 \text{ mm.suv ustuni.}$$

7. Har bir mashinaning soplosidagi havo chiqishda paydo bo'ladigan havoning dinamik qarshiligini quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$h_d=\xi \cdot \gamma \cdot V^2 : 2 g \cdot K_m \text{ mm. suv ustuni.}$$

$$h_{din}=0,2 \cdot 1,24 \cdot 60^2 / 2 \cdot 9,8=45.55$$

bu yerda: ξ - mahalliy qarshiligi koeffisienti, $\xi=0,2\text{--}0,3$

V - soplodan chiqishdagi havo tezligi, $V=55\text{--}65 \text{ m/s}$;

γ - havoning nisbiy o'qirligi, $\gamma=1,24 \text{ kg/m}^3$.

8. Sistemadagi o'rnatilgan hamma mashinadagi xavoning dinamik qarshiligini aniqlaymiz.

$$H_{din}=h_{din} \cdot K_m=45.55 \cdot 2=91,1$$

9. Ventilyator tanlashda kerakli sistema bo'yicha havo qarshiligi:

$$N_{um}=H_{st}+H_d, \text{ mm.suv.ustuni.}$$

$$N_{um}=H_{st}+H_d=40,2+91,1=131,3$$

10. Ventilyatorni ishlatish uchun kerakli bo'lgan quvvat miqdorini hisoblanadi:

$$N=(Q_{um} \cdot H_{um} / 102 \eta) \cdot \varphi \text{ kVt.}$$

$$N=1,46 \cdot 131,3 / 102 \cdot 0,3=6,3 \text{ kVt}$$

bu yerda: η -ventilyatorning FIKi $\eta=0,3\text{--}0,7$

11. Aniqlangan, havo hajmi (Q_{um}), sistemadagi umumiy havo qarshiligi (N_{um}), kerakli quvvat miqdori (N) va ventilyatorning f.i.k.-ti asosida, sistema uchun VS-8M ventilyatori tanlandi.

Norin PTK datolal mahsulotlarini toylashda ishlatiladigan gidroressning ish unumdorligini hisoblash

Paxta tozalash zavodlarining uzluksiz ishlashini ta'minlashda tolali mahsulotlarni toylash jarayonining ahamiyati juda katta. Shu sababli zavodlarda

ishlatiladigan gidroresslarning ish unumdorligini hisoblash, gidroress qurilmalaridan unumli foydalanishga imkoniyat yaratadi.

DB-8237 modeli gidroress qurilmasining ish unumdorligi uning texnik ko'rsatkichlari, zichlanadigan tola toyining standart me'yorlari va tolaga beriladigan bosim kuchi bilan tolaning hajmi, zichligi orasidagi empirik bog'liqlar asosida hisoblanadi.

Gidroressning ish unumdorligini hisoblash uchun kerakli dastlabki ma'lumotlar qo'yidagilardan mavjud:

Xisoblash uchun quyidagi dastlabki ma'lumotlardan foydalanildi:

1. Pressning tolani zichlashda eng so'nggi bosimi $R = \underline{320} \text{ kgk/sm}^2$
2. Press silindri plunjerining diametri $d = \underline{25,0} \text{ sm}$
3. Press yashigining ko'ndalang qirqim yuzasi $F_{YA} = \underline{5405} \text{ sm}^2$
4. Press plunjerining to'liq ko'tarilish balandligi $N = \underline{322,5} \text{ sm}$
5. Gidroressning foydali ish koeffisienti $\eta = \underline{0,98}$
6. Gidronasos agregatining texnik ko'rsatkichlari:
 - a) Bosim bosqichlari bo'yicha suyuqlik uzatish mumkinligi
(ish unumdorligi) l/min $q_1 = \underline{940}, q_2 = \underline{320}, q_3 = \underline{50}$
 - b) Bosim bosqichlari buyicha nasoslarnig bosim kuchi,
 kgk/sm^2 $r_1 = \underline{25}, r_2 = \underline{100}, r_3 = \underline{320}$
7. Toylandigan tola massasi $G = \underline{221} \text{ kg}$
8. Toylandigan tola namligi $W = \underline{8,7}\%$

1. Presslash paytida bosim bosqichlari bo'yicha tolaga beriladigan nisbiy bosim kuchi quyidagicha ifodalanadi:

$$P_i = p_i \frac{f_n}{f_{\pi}} \cdot \eta, \text{ kgk/sm}^2$$

$$P_1 = p_1 \frac{f_n}{f_{\pi}} \cdot \eta = 25 \frac{1589,625}{5405} 0,98 = 7,2 \text{ kgk/sm}^2$$

$$P_2 = p_2 \frac{f_n}{f_{\text{я}}} \cdot \eta = 100 \frac{1589,625}{5405} 0,98 = 28,8 \text{ kgk/sm}^2$$

$$P_3 = p_3 \frac{f_n}{f_{\text{я}}} \cdot \eta = 320 \frac{1589,625}{5405} 0,98 = 92,2 \text{ kgk/sm}^2$$

bu yerda: r_i – bosim bosqichlari bo'yicha nasoslar guruhining bosim kuchi, kgk/sm^2 .

f_n – gidropress plunjirining ko'ndalang qirqim yuzasi, sm^2 ($f_n = pR^2$) = $3,14 \cdot 22,5^2 = 1589,625 \text{ sm}^2$

$f_{\text{я}}$ – gidropress kamerasining ko'ndalang qirqim yuzasi, sm^2

($f_{\text{я}} = a \cdot b$; a – press kamera qirqimining eni, b – uzunligi)

η – gidropress silindrining F.I.K.

2. Bosim bosqichlari bo'yicha tolani hajm zichlanishini xisoblaymiz.

Agar $W \leq 7\%$, $p_i = 1,0 - 12,0 \text{ kgk/sm}^2$ bo'lsa quyidagi formula orqali topamiz.

$$\gamma_i = (288 - 23\sqrt{P_i}) \cdot \sqrt[3]{P_i} - 55$$

$$\gamma_1 = (288 - 23\sqrt{P_1}) \cdot \sqrt[3]{P_1} - 55 = (288 - 23\sqrt{7,2}) \cdot \sqrt[3]{7,2} - 55 = 382,0 \text{ kg/m}$$

3

Agar namlik va bosim bosqichlari bo'yicha bosim kuchi yuqoridagi shartlarga to'g'ri kelmaydigan bo'lsa, unda tolaning zichligi quyidagi empirik formula yordamida topiladi.

$$\gamma_i = \frac{6800}{44 - W} \sqrt[3]{P_i}, \text{ kg/m}^3$$

$$\gamma_2 = \frac{6800}{44 - W} \sqrt[3]{P_2} = \frac{6800}{44 - 8,7} \sqrt[3]{28,8} = 590,6 \text{ kg/m}^3$$

$$\gamma_3 = \frac{6800}{44 - W} \sqrt[3]{P_3} = \frac{6800}{44 - 8,7} \sqrt[3]{92,2} = 870,3 \text{ kg/m}^3$$

3. Agar tola massasi o'zgarmaydigan bo'lsa ($G = \text{const}$) unda bosim bosqichlari bo'yicha tolani press yashig'i ichidagi hajmi aniqlanadi.

$$V_i = \frac{G}{\gamma_i}, \text{ m}^3$$

$$V_1 = \frac{G}{\gamma_1} = \frac{221}{382,0} = 0,58 \text{ m}^3$$

$$V_2 = \frac{G}{\gamma_2} = \frac{221}{5} = 0,37 \text{ m}^3$$

$$V_3 = \frac{G}{\gamma_3} = \frac{221}{870,3} = 0,25 \text{ m}^3$$

4. Press yashig'ining ko'ndalang qirqim yuzasi o'zgarmasligi sababli tolani press yashig'i ichidagi bosim bosqichlari buyicha balandligi xisoblanadi.

$$h_i = \frac{V_i}{f_{\text{я}}}, \text{ m}$$

$$h_1 = \frac{V_1}{f_{\text{я}}} = \frac{0,58}{0,5405} = 1,07 \text{ m}$$

$$h_2 = \frac{V_2}{f_{\text{я}}} = \frac{0,37}{0,5405} = 0,69 \text{ m}$$

$$h_3 = \frac{V_3}{f_{\text{я}}} = \frac{0,25}{0,5405} = 0,47 \text{ m}$$

5. Agar press plunjerining to'liq ko'tarilish balandligi ($H=\text{const}$) bo'lsa, unda plunjerning press yashig'i ichida bosim bosqichlari bo'yicha ko'tarilish balandligi aniqlanadi

$$S_i = H - h_i, \text{ dm}$$

$$S_1 = 3,225 - 1,07 = 2,255 = 22,55 \text{ dm};$$

$$S_2 = 3,225 - 0,69 = 2,633 = 26,33 \text{ dm};$$

$$S_3 = 3,225 - 0,47 = 2,855 = 28,55 \text{ dm}.$$

6. Gidronasosning bosim bosqichlari bo'yicha press silindri ichiga suyuqlik berish mumkinligini xisoblaymiz.

$$Q_{CYOK}^I = q_1 + q_2 + q_3 = 940 + 320 + 50 = 1310/60 = 21,83 \text{ l/sek}$$

$$Q_{CYOK}^{II} = q_2 + q_3 = 320 + 50 = 370/60 = 6,17 \text{ l/sek}$$

$$Q_{CYOK}^{III} = q_3 = 50/60 = 0,8 \text{ l/sek}$$

7. Hidroress plunjerini ko'tarish uchun bosim boskichlari buyicha silindrlarning ichiga beriladigan suyuqlik xajmini aniklaymiz.

$$Q_i = f_n \cdot S_i \text{ litr}$$

$$Q_I = f_n \cdot S_1 = 15,9 \cdot 22,55 = 358,41 \text{ litr}$$

$$Q_{II} = f_n \cdot (S_2 - S_1) = 15,9 \cdot (26,33 - 22,55) = 60,09 \text{ litr}$$

$$Q_{III} = f_n \cdot (S_3 - S_2) = 15,9 \cdot (28,55 - 26,33) = 35,37 \text{ litr}$$

8. Bosim bosqichlari bo'yicha press silindri ichiga beriladigan suyuqlik xajmini va gidranasosning ish unumdorligi (suyuqlik berish mumkinligi) bilgan holda nasoslarning ishlash vaqtini quyidagi formula orqali topamiz.

$$t_i = \frac{Q_i}{Q_{CYOK}^I}, \text{ sek} \quad t_1 = \frac{Q_1}{Q_{CYOK}^I} = \frac{358,41}{21,83} = 16,42 \text{ sek}$$

$$t_2 = \frac{Q_2}{Q_{CYOK}^{II}} = \frac{60,09}{6,17} = 9,74 \text{ sek}$$

$$t_3 = \frac{Q_3}{Q_{CYOK}^{III}} = \frac{35,37}{0,8} = 4,3 \text{ sek}$$

9. Plunjerni ko'tarishga ketadigan umumiy vakt.

$$T_P = t_1 + t_2 + t_3 = 16,42 + 9,74 + 4,3 = 30,46 \text{ sek}$$

10. Bitta toyni toylash uchun ketadigan vakt.

$$T_{um} = T_P + t_{bur} + t_{pr} + t_{pbo} + t_{eo} + t_{bog} + t_{tch} + t_{yos} + t_{pt} + t_{eyop} + t_{shi}$$

$$T_{um} = 30,46 + 10 + 60 + 40 + 6 + 120 + 5 + 4 + 16 + 5 + 3 = 299,46 = 4 \text{ min } 59 \text{ sek}$$

t_{bur}	Press-kamerani aylantirish va ushlagichlarni bog'lash	10
t_{pr}	Presslash	60
$t_{pbo'}$	Ustkipress-plita yo'llaridan belbog'larni o'tkazish	40
t_{eo}	Press-kamera eshiklarini to'liq ochish	6
$t_{bog'}$	Toylarni bog'lash	120
t_{tch}	Qisqacha kengayish va toy chiqarish	5
t_{yos}	Yostiqchani solish	4
t_{pt}	Bosh plunjerni tushirish	16
t_{eyop}	Eshiklarni yopish va ilgichlarni ilish	5
t_{shi}	«Asosiy sholni» ilish	3

11. Hidroressning tolani zichlash bo'yicha ish unumdorligini quyidagi formula bilan xisoblaymiz.

$$\Pi = \frac{G}{T_{ym}} \cdot 3600 \text{ kg/soat}$$

$$\Pi = \frac{G}{T_{ym}} \cdot 3600 = \frac{221}{299,46} \cdot 3600 = 2656,78 \text{ kg/soat yoki } 12 \text{ toy/soat}$$

Xulosa

- BMI ning texnologik bo'limida korxonadagi mavjud o'rta tolali paxtani qayta shlash texnologik jarayoni o'rganib chiqildi,
- Korxonaning balans hisobotiga asoslanib zavodning balans hisobini hisoblab chiqildi,
- jin mashinalari uchun ventilyator tanlash hisobini bajarildi,
- gidroressda 1 toyni tayyor bo'lishiga ketgan vaqtni hisoblab chiqildi.

MEXANIKA QISMI

Jinlash jarayoni to'g'risida umumiy ma'lumot

Chigitli paxta quritish-tozalash va tozalash sexlarida kondision namlikkacha quritilib va xas-cho'plardan tozalangandan keyin zavodning bosh binosiga jinlash (tolasini ajratish) uchun yuboriladi. Jinlash - chigitli paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonning asosiy operatsiyasi hisoblanib, bunda chigitli paxta tolasi chigitidan ajratiladi. Jinlash jarayonida chigitli paxta tolasi chigitidan mexanik kuch bilan ajratib olinadi.

Tolaning chigit bilan bog'lanish kuchi yakka tolaning uzilish kuchiga qaraganda $2 \div 3$ marta kam bo'lgani uchun jinlash jarayonida tola o'zining tabiiy xususiyatlarini (uzunlik, ingichkalik, pishganlik darajasi va h.k) saqlagan holda tubidan uzilib, chigitdan ajratib olinadi. Uzun tolali chigitli paxta tolalarining chigit bilan bog'lanish kuchi o'rta tolanikidan ancha kam bo'lgani uchun ularni tukli sirtlarga ishqalanish kuchi hisobiga ham chigitidan ajratib olish mumkin. Shuning uchun uzun tolali chigitli paxtalar tolasini chigitidan valikli jinlarda, o'rta tolali chigitli paxtalarining tolasini esa arrali jinlarda ajratiladi.

Valikli jinlarning asosiy ishchi organlari valik bo'lib, uning tukli sirti uzun tolali paxta tolasining sifatiga zarar yetkazmaydi. Arrali jinlarda ish organi sifatida arrali diskalardan terilgan silindr xizmat qiladi va tohani chigitdan ajratish uchun arrali diskalar bilan qobirg'ali panjara birgalikda ishlaydi.

Chigitli paxtani jinlashda quyidagi texnologik talablar bajarilishi lozim:

- chigitlardan yigirishga yaroqli tolalarni ajratib olish;
- jin ishchi organlarining tolaga ta'siri natijasida tola va chigitda nuqsonlar paydo qilmasligi;
- chigitli paxta bo'laklari jindan chiqayotgan tola yoki chigitga qo'shilib ketmasligi;
- o'luk va iflos aralashmalardan tozalash samaradorligi yuqori bo'lishi;
- chiqayotgan chigitning tukliligini va o'lukdagi tola miqdorini belgilangan me'yordan ortmasligi.

Jinlash jarayonida quyidagi nuqsonlar paydo bo'lishi mumkin:

- chigit po'chog'i bo'lakchasiga yopishgan tolalar;

- uzilgan va shikastlangan tolalar, tugunchalar;
- buralib qolgan, eshilgan tolalar, gajaklar, puch chigitlar.

Jinlash jarayonida nuqsonlarni paydo bo'lmash uchun, jinlarni va boshqa tozalash uskunalari texnologik talabga muvofiq ravishda ishlatish kerak bo'ladi.

Jin ta'minlagich mashinasining konstruksiyasi va ishlash jarayoni

Jin mashinasining ustiga o'rnatilgan ta'minlagich uskunasi asosiy vazifasi: tolasini ajratishga berilgan chigitli paxtani jinning ishchi kamerasiga yaxshi titilgan holda, bir tekisda uzatib berishdan iborat.

ИД markali bir barabanli ta'minlagich uskunasi sxemasi 7-rasmda keltirilgan.


Uning ishlash jarayoni quyidagicha: chigitli paxta ta'minlagich ustiga o'rnatilgan shaxtaga tushadi. Bir-biriga qarama-qarshi aylanadigan ta'minlash valiklari 1 chigitli paxtani shaxtadan bir tekisda qoziqchali barabanga 2 uzatadi, qoziqchali baraban paxtani titkilab to'rt yuzga 3 ustidan sudrab o'tib uni mayda xas-cho'plardan oxirgi marta tozalaydi. Tozalangan chigitli paxta qoziqchali baraban yordamida novga 4 uzatiladi va jinning ishchi kamerasiga tushadi.

Ta'minlash valiklarining 1 aylanish tezligi shu valikning o'qiga o'rnatilgan ИВА markali impulsli variator orqali rostlanib, jinning ishchi kamerasiga uzatiladigan chigitli paxta hajmi ko'p yoki kam bo'lishini ta'minlaydi, ya'ni jin mashinasini ish unumdorligini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi.

Arrali jinning texnologik jarayoni


Paxta tozalash korxonasining bosh binosiga keltirilgan chigitli paxta separator, taqsimlovchi vintli konveyer va har bir jin ustiga o'rnatilgan ta'minlash shaxtasiga, so'ngra jinning ishchi kamerasiga bir tekis kelib tushadi (8-rasm).

Jinning ishchi kamerasiga tushgan chigitli paxtani aylanayotgan arratishlari ilib olib, ishchi kamerasi yoyi bo'ylab sudrab qobirg'aga olib keladi. Tishlarga ilingan chigitli paxta bo'lakchalari boshqa paxta bo'lakchalariga



7-rasm. ПД – ta'minlagichning ko'ndalang qirqim sxemasi

1.Ta'minlash valigi. 2. Qoziq'chali baraban. 3.To'rli yuza. 4. Nov. 5.Ifloslik konveyeri



8-rasm. Arrali jin ishchi kamerasida jinlash texnologiyasining sxemasi
 1-Chigit tarog'i; 2-arra vali; 3-arralar oralig'idagi qistirma; 4-arrali tsilindr; 5-qobirg'ali panjara; 6-ishchi kamerasi; 7-xom ashyo valigi.

ilashib, ularni ham tortadi, kameradagi hamma chigitli paxta aylana boshlaydi. Shunday qilib, arrali diskka qarama-qarshi tomonga aylanuvchi xom ashyo valigi hosil bo'lib, u arra tishlarini paxta tolasi bilan uzluksiz ta'minlaydi.

Arra tishlariga ilingan tolalar qobirg'alarining orasidan olib o'tiladi, chigitlar esa o'ta olmay to'xtab qoladi. Qobirg'a ortiga sudrab o'tilgan tola soplodan chiqqan havo oqimi bilan ajratilib, umumiy tola tortish quvuriga uzatiladi. Qobirg'alarining ishchi qismida tirqishlar kengligi 3,2 mm gacha bo'lganligi uchun chigit o'tib keta olmasdan, aylanib turgan xom ashyo valigiga qo'shilib ketadi va hamma tolalari ajralmaguncha aylanishda davom etadi.


Tolalari to'liq ajratib olingan chigitlar o'zining ilashish qobiliyatini yo'qotadi va xom ashyo valigidan ajralib qobirg'a orasiga, so'ngra uning tirqishlaridan pastga tushadi. Jindan chiqayotgan chigitlarning tuklilik darajasi chigit tarog'i bilan o'zgartirilib turiladi.

Jinning ishchi kamerasiga chigitli paxtani to'xtovsiz berish, chigit va chigitdan ajragan tolalarni jindan uzluksiz olib ketish arrali jinning to'xtovsiz ishlashini ta'minlaydi.

9-rasmda chigitli paxtani tolasidan ajratuvchi arrali 5ДП-130 jinning ko'ndalang qirqim sxemasi keltirilgan.

5ДП-130 rusumli arrali jin havo oqimi yordamida pastdan tola ajratadi. Arrali jinlar ПД rusumli ta'minlagichlar bilan jixozlangan bo'lib, ular paxtani jinga bir maromda va muvofiqlashgan holda uzatishini, shuningdek, uni qo'shimcha titilishini hamda mayda ifloslikdan tozalanishini ta'minlaydi (9-rasm).

Ta'minlagichdan tushgan chigitli paxta qoziqchali barabanlarda 2 tozalanib, jinning ishchi kamerasiga 12 tushadi va chigitli paxtani chigit tarog'ining 10 yonida aylanayotgan arra tishlari 9 ilib olib, arra yoyi bo'ylab sudrab qobirg'alarga 11 olib keladi. Arra tishlariga ilingan tolali chigitlar boshqa tolali chigitlarni ilashtirib ularni ham tortadi: shu yo'sinda arraning aylanishi hamda tolali chigitlarning bir-biriga ilashishi natijasida ishchi kamerasida paxta (xom ashyo valigi) aralashmasi aylana boshlaydi. Shunday qilib arraning



9-rasm. 5ДП-130 arrali jinning ta'minlagichi bilan ko'ndalang qirqimi sxemasi

1. Ta'minlovchi valiklar; 2. Qoziqchali baraban; 3. To'rli yuza; 4. Ifloslik shegi;

5. Nov; 6. Ishchi kamerasi; 7. Arrali silindr; 8. Kolosnik; 9. Chigit tarog'i;

10. Oldingi fartuk; 11. Kolosnikli panjara; 12. Chiqindini uzatish shnegi;


13. Havо kamerasi; 14. Tola uzatishquvur; 15. Asos

aylanishiga qarshi tomonga aylanuvchi xom ashyo valigi hosil bo'lib, u arra tishlarini tola bilan uzluksiz ta'minlaydi.

Arra tishlariga ilingan tolalar qobirg'alarning orasidan olib o'tiladi, chigitlar esa o'taolmaydi, shunda tolalar chigitdan ajraladi. Tolalar soplodan (tirqishdan) 8 chiqqan havo oqimi bilan arra tishidan ajratilib, umumiy tola tortish quvuriga uzatiladi. Qobirg'alarning ishchi qismida (arra tishlari chiqib ketadigan joyi) tirqish kengligi 2,8-3,2 mm dan katta bo'lmagani uchun chigit o'ta olmasdan aylanib turgan xom ashyo valigiga qo'shilib ketadi va kerakli miqdordagi tolalari olinmaguncha shu yo'sinda aylanishda va arra tishiga kelishda davom etadi.

Arrali jinlarning texnik ko'rsatkislari

Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich miqdori	
	4ДП-130	5ДП-130
Tola bo'yicha ish unumdorligi, kg/h	2000±20	2000±20
Havo kamerasidagi statik bosim, Pa	1200	1200±10
(mm suv ustuni)	(120)	(120)
Tolani ajratish uchun havo sarfi, m ³ /s	0,8	0,8
Umumiy tozalash samaradorligi, %	10-15	15
Chigit tukdorligi, %	12-13	12-13
Ishchi organlarni aylanish tezligi, (r/min):		
arrali silindrniki	735	730
Qoziqli barabanniki	500	512
ta'minlash valiklariniki	0-14	0-14
o'lik va ifloslik konveyerlariniki	35	23
O'rnatilgan quvvat, kW		
arrali silindrda	75	75
ta'minlagichda	2,2	2,2
Texnologik tirqishlar, mm:		
ishchi xududda qobirg'alar orasidagi	2,8-3,2	2,8-3,2
yuqori xududda qobirg'alar orasidagi	4±1.43	4±1.43
qoziqli baraban qoziqlari va to'r yuzasi orasida	15±5	15±5
arrali silindr va havo kamerasi brusi orasidagi	1-3	1-3
Arraning qobirg'adan chiqib turishi, mm	47-50	47-50
Arralar soni, dona	130	130
Ishchi organlarni asosiy o'lchamlari, mm:		
arraning tashqi diametri	320	320
arraning ichki diametri	100	100
arralar oralig'i masofasi	18	18
arralar orasidagi qistirmaning eni	17,05	17,05
qistirmalarning tashqi diametri	160	160
o'lik va iflosliklar konveyerlarining diametri	150	150
qoziqli baraban diametri	400	400
ta'minlash valiklarining diametri	140	140
qirg'ich diametri	150	-
Mashina gabarit o'lchamlari, mm:		
uzunligi	4605	4410
kengligi	1450	1450
balandligi	2400	2380
Massasi, kg	3396	4150
Arrali valning o'lchamlari, mm:		
diametri	100	100
chekkadagi arralar orasidagi masofa	2322,95	2322,95



10-rasm. 4DP-130 arrali ginning kinematik sxemasi

I – arrali tsilidr; II – xom ashyo valigi harakatlantirish vali; III – ulyuk shneki; IV – sidirg’ich; V – ifloslik shnegi; VI – qoziqli baraban; VII, VIII – ta’minlovchi valiklar

MEHNAT MUHOFAZASI QISMI

Elektr xavfsizligini ta'minlash

Ishlovchilarning birdaniga ikkala fazaga ulanib qolish va faza bilan yer oralig'iga ulanib qolish xavfi bor. Ikkala fazaga ulanib qolish juda xavfli.

Ishlovchining bir fazali ulanib qolishida, uning ixotalangan toksiz simga (neytralga) ulangani (uch simli), yerga ulangan toksiz simga ulanganidan ko'ra xavfsizrokdir (to'rt simli).

Elektr toki ta'sirida odam organizmi ikki xil jarohatlanishi: tashqi (elektr jarohatlanishi) va ichki (elektr urishi — tok udari). Elektr bilan jarohatlanishda — organizm kuyishi, teri metallashishi va mexanik jarohatlanishi mumkin. Ichki—elektr urishi natijasida odam organizmidagi qon elektrolizlanishi, asab sistemasi, yurak va organizm boshqa qismlarining faoliyati buzilishi mumkin.

Odamni tok urganda, elektr urishini 4 xilga bo'lishadi: 1 — odam o'zidan ketmaydi, uning muskullari qisqaradi; 2 — muskullar qisqaradi, odam o'zidan ketadi, lekin nafas olib turadi, yuragi ishlab turadi; 3 — o'zidan ketadi, nafas olish va yurak urish faoliyati buziladi (unisi yoki bunisi, ba'zida ikkalasi ham); 4 — klinik o'lim — nafas olish va qon aylanishi to'xtagan bo'ladi. Ÿz vaqtida malakali yordam berilsa, jarohatlangan shaxsni o'limdan saqlab qolish mumkin.

Elektr toki ta'siri natijasi (oqibati) inson tanasi qarshiligiga, tok kuchiga va uning davomiyligi, tok turi va chastota-siga, odamning shaxsiy holatiga bog'liqbo'ladi. ($R_{\text{odam}} = 1000 \text{ Om}$).

- 1) 0,6 — 1,5 mA — sezish toki (odam sezadi), xavfsiz.
- 2) 10 — 15 mA — ushlab qoluvchi tok, elektr o'tkazgichdan ajralib ketish qiyin, bu tokning muddatli ta'siri odamning o'li-shiga sabab bo'ladi. Shuning uchun o'tkazgichdan tezda ajralishning ilojini ko'rish kerak. Odam uchun xavfli.
